

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TIBBIY  
PSIXOLOGIYA VA SHAXSLARARO MULOQOT FANIDAN MALAKA  
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TIBBIY PSIXOLOGIYA VA SHAXSLARARO MULOQOT FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17- sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot**

1. Ruhiy jarayonlar
2. Emotsiya jarayoni
3. Iroda haqida tushunchalar
4. Psixogigiyena, psixoprofilaktika, psixoterapiya
5. Ambulatoriya, terapiya, bolalar kasalliklarda bemor bilan muloqot psixologiyasi
6. Sog‘lom ayol psixologiyasi. Akusherlik-ginekologiya bemorlari bilan muloqot psixologiyasi

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Ruhii jarayonlar asoslari	<p>Ruhii holat, jarayon, ruhiy hodisa haqida tushunchaga ega bo'ladi va ularni farqlaydi. Ongning xususiyatlarini biladi va normal ruhiy holat haqida ma'lumotni bilish.</p> <p>Turli kasalliklar, shikastlashlar, stress kabi fiziologik va patologik holatlarda ongni buzilishi haqida tushunchaga ega bo'lish va farqlash.</p> <p>Ongi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo'lish xususiyatlarini biladi va ularni qo'llash.</p>	6
2	Emotsiya jarayoni	<p>Emotsiya tushunchasi va turlari. Emotsional holatlar haqida ma'lumot: kayfiyat, ehtiros, jazava. Emotsiyalarni fiziologik mexanizmlari. Emotsiya jarayonining organizm bilan bog'liqligi, inson faoliyatidagi ahamiyati. Emotsiya jarayonining turli kasalliklarida buzilishi: eyforiya, disforiya, depressiya, emotsional ambivalentlik, emotsional loqaydlik. Emotsiyasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo'lish psixologiyasi</p>	5
3	Iroda haqida tushunchalar	<p>Iroda jarayoni bosqich va sifatlari, iroda jarayoni haqidagi nazariyalar. Iroda jarayoni tarbiyasi. Odam irodasini shakllantirish. Tilak, xohish tushunchalari, ko'nikmalar haqida ma'lumot. Iroda faoliyatining turli kasalliklarda o'zgarishi; Tibbiyot xodimlarining irodasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo'lish psixologiyasi</p>	5
4	Psixogigiyena, psixoprofilaktika, psixoterapiya	<p>Psixogigiyena tushunchasi. Psixogigiyenaning asosiy bo'limlari: yoshga oid psixogigiyena, mehnat va ta'lim psixogigiyenasi, turmush psixogigiyenasi, oila va jinsiy hayot psixogigiyenasi, jamoa hayoti psixogigiyenasi. Tibbiyot xodimlari psixogigiyenasi.</p> <p>Psixoprofilaktika tushunchasi; psixoprofilaktikaga qaratilgan tadbirlar. Psixoterapiya haqida ma'lumot, Psixoterapevtik davolash usullari. Abu Ali ibn Sinon psixoterapevtik usul bilan davolash borasidagi fikrlari. Psixoprofilaktika. Psixoprofilaktikaning dolzarb masalalari</p>	6

5	Ambulatoriya, terapiya, bolalar kasalliklarda bemor bilan muloqot psixologiyasi	<p>Ambulatoriyada sog‘lom muhit yaratish psixologiyasi. “Ayollar maslahatxonasi”da bemorlarga munosabat psixologiyasi. Oilaviy poliklinikada olib boriladigan profilaktika ishlari. Ambulatoriya va poliklinikada bemorga xizmat ko‘rsatish psixologiyasi. Poliklika sharoitida olib boriladigan psixoterapevtik tadbirlar. Oilaviy poliklikalarda olib boriladigan davolash-profilaktika ishlari.</p> <p>Terapevtik, jarrohlik, ruhiy, bolalar kasalliklarida bemorlar psixologiyasi, bemorlarni davolashda ruhiy taassurotlar, psixoterapevtik davolash usullari. Somatik kasalliklar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Somatik kasalliklarda kuzatiladigan ruhiy o‘zgarishlar va bemorlarni davolash tadbirlari.</p> <p>Turli terapevtik kasalliklar davolashda ruhiy taassurotlarng o‘rni. Bemor ruhiyatiga kasallikning ta’siri.</p> <p>Jarrohlik operatsiyalari va ularning bemor ruhiyatiga ta’siri. Jarrohlik kasalliklaridagi operatsiyadan oldingi va keyingi o‘zgarishlar. Jarrohlik bo‘limlaridagi bemorlarning o‘ziga hos ruhiy holatlari.</p> <p>Yosh bolalar ruhiyatiga kasalliklarning ta’siri; Yoshga qarab psixoprofilaktika ishlarini olib borish; ota-onalar bilan muloqotning xususiyatlari. Bolalar kasalliklarida bemorlar bilan munosabatda bo‘lish psixologiyasi. Tibbiyot xodimlarining bolalar psixologiyasi, psixoterapiya va amaliy psixologiyasini bilishlari haqida. Bemor bolalarng ota onasi bilan munosabatda bo‘lish psixologiyasi. Yoshga qarab psixoprofilaktik ishlar tashkil qilish.</p>	11
6	Sog‘lom ayol psixologiyasi. Akusherlik-ginekologiya bemorlari bilan muloqot psixologiyasi	<p>Sog‘lom ayollarga munosabat psixologiyasi. Sog‘lom ayol psixologiyasi. Oila va jinsiy hayot psixologiyasi. Tug‘ishdavri psixologiyasi. Klimaks davri psixologiyasi. Ginekologik bemorlar bilan munosabatda bo‘lish psixologiyasi. Tibbiyot xodimining taktikasi. Onalar va bolalar salomatligini saqlashga qaratilgan tadbirlar. Tibbiyot xodimining asosiy burchlari va vazifalari</p>	7

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Y.M. Fayziyev "Umumiy va tibbiy psixologiya" Toshkent, 2016 yil
2. Y.M. Fayziyev "Tibbiy psixologiya" Toshkent, 2022 yil
3. X.K. Ishanxodjayeva, M.N. Muzaffarov "Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot" Toshkent, 2024

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*